

DIREKTIV VA KOMISSIV NUTQ AKTLARIDA MAQSAD VA INTILISHNI KO'RSATUVCHI FRAZEOLOGIK BIRLIKLAR TADQIQI

Qurbonova Farangiz Mizayevna

Termiz davlat muhandislik va agrotexnologiyalar universiteti

O'zbek tili va adabiyoti kafedrası o'qituvchisi

Talabasi Xamroqulova Mahfuza

kurbonova98@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.20536405>

Annotatsiya. Ushbu tezısdı hozirgi zamon pragmalıngvıstikasining dolzarb masalalaridan biri — direktiv va komıssiv nutq aktlarida maqsad hamda intilish semantikasining frazeologik birliklar orqali ifodalanishi masalasi qiyosiy jihatdan tadqiq etilgan. Maqolada ingliz va o'zbek tillaridagi iboralarning nutqiy muloqotdagi pragmatik funksiyalari, illokutiv kuchi va subyekt niyatini yoritishdagi o'rni lisoniy misollar yordamida tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: pragmalıngvıstika, nutq akti, direktiv, komıssiv, frazeologik birlik, maqsad va intilish semantikasi, illokutiv kuch, qiyosiy tahlil.

Abstract. This thesis focuses on a comparative study of phraseological units expressing the semantics of purpose and aspiration within directive and commissive speech acts, which is a significant topic in modern pragmalinguistics. The paper analyzes the pragmatic functions, illocutionary force, and the role of idioms in conveying the speaker's intention in English and Uzbek through contextual examples.

Keywords: pragmalinguistics, speech act, directive, commissive, phraseological unit, semantics of purpose and aspiration, illocutionary force, comparative analysis.

Hozirgi zamon tilshunosligida lisoniy birliklarni antropotsentrik va pragmatik jihatdan tadqiq etish yetakchi o'rinlardan birini egallaydi. Xususan, nutq aktlari nazariyasi doirasida so'zlovchining subyektiv maqsadlari, intilishlari va muloqotdagi strategiyalari qay tarzda reallashishini o'rganish alohida dolzarblikka ega. Nutqiy muloqot tizimida asosiy o'rin tutadigan direktiv (buyruq, talab, iltimos) va komıssiv (va'da, majburiyat, qasam) nutq aktlari o'z tabiati bilan inson faoliyatini, uning maqsad va muddaolarini boshqarishga xizmat qiladi. Ushbu nutq aktlarida maqsad va intilish semantikasining oddiy leksik vositalar bilan bir qatorda, tilning ekspressiv-emosional qatlami bo'lgan frazeologik birliklar (iboralar) orqali ifodalanishi muloqotning ta'sirchanligi va pragmatik jozibasini oshiradi.

Ushbu tadqiqotning maqsadi ingliz va o'zbek tillarida direktiv hamda komıssiv nutq aktlari tarkibida kelib, so'zlovchi yoki tinglovchining muayyan maqsad va kelajakka yo'naltirilgan intilishlarini aks ettiruvchi frazeologik birliklarning semantik-pragmatik xususiyatlarini qiyosiy tahlil qilishdan iborat. Shundan kelib chiqib, quyidagi vazifalar belgilandi: direktiv va komıssiv nutq aktlarida maqsad konseptining ifodalanish usullarini aniqlash; iboralarni lisoniy-semantik va madaniy jihatdan tasniflash; frazeologizmlarning konotativ va pragmatik ma'no qatlamlarini nutqiy kontekst asosida yoritish.

Frazeologik birliklar semantikasidagi "maqsad" va "intilish" tushunchalari ko'pincha subyektning kelajakka qaratilgan harakat dasturini yoki boshqa shaxsni harakatga undash motivatsiyasini ifodalaydi. Direktiv nutq aktlarining bosh maqsadi — tinglovchini so'zlovchi xohlagan harakatni bajarishga undashdir. Bu yerda frazeologizmlar buyruq yoki iltimosning intensivligini (kuchini) oshirishga xizmat qiladi.

O'zbek tilida: Masalan, *boshini ikkita qilmoq* (uylantirish maqsadida), *yo'lga solmoq* (to'g'ri yo'nalish berish intilishi), *qulog'iga quyamoq* (doimiy uqtirish maqsadida) kabi iboralar direktiv

kontekstda subyektning aniq maqsadli intilishini ko'rsatadi. *"O'g'lim, endi sening ham boshingni ikkita qilishimiz kerak"* gapida direktiv illokutiv maqsad oila qurish niyati bilan bog'liq. Ingliz tilida: *To pull oneself together* (o'zini qo'lga olish, maqsadsizlikdan qutulish), *to keep an eye on* (nazorat qilish maqsadi). *"You must keep your chin up!"* (Ruhni tushirmaslikka, intilishga undash).

Komissiv nutq aktlarida maqsad va intilish ifodasi. Komissiv nutq aktlarida so'zlovchi kelajakda o'zi muayyan bir harakatni bajarish majburiyatini oladi. Bu yerda maqsad va intilish bevosita so'zlovchining ichki irodasi va qat'iyatiga tayanadi. O'zbek tilida: *Boshini garovga qo'ymoq, tish-tirnog'i bilan* (kurashish, erishish intilishi), *ko'z qorachig'iday asramoq* (himoya qilish majburiyati). *"Bu ishni bitirish uchun tish-tirnog'im bilan kurashaman"* ifodasida komissiv akt subyektning yuqori darajadagi intilish motivatsiyasini frazeologik sathda namoyon etmoqda. Ingliz tilida: *To go the extra mile* (maqsadga erishish uchun borini bermoq), *to give one's word* (va'da bermoq), *at all costs* (har qanday evaziga bo'lsa ham). *"I will achieve this goal at all costs"* gapida "at all costs" iborasi komissiv aktning pragmatik kuchini oshirib, subyektning so'nishmas intilishini ko'rsatadi.

O'rganilgan materiallar shuni ko'rsatadiki, maqsad va intilishni ifodalovchi frazeologizmlar nutq aktlarida shunchaki informativ vazifani bajarmaydi. Ular muloqot ishtirokchilarining mentalitetini, dunyoqarashini va madaniy-milliy kodlarini o'zida tashiydi. O'zbek xalqi nutqiy etiketida andisha, hurmat va bilvositalik (indirektlik) ustunlik qilsa, ingliz tilida ko'proq ratsionallik va individual maqsadlarning aniq chegaralanishi kuzatiladi. Biroq har ikki tilda ham ushbu iboralar nutq faoliyatining samaradorligini ta'minlovchi kuchli pragmatik operatorlar hisoblanadi.

Xulosa qilib aytganda, direktiv va komissiv nutq aktlarida maqsad va intilish semantikasiga ega frazeologik birliklarning tadqiq etilishi, til va nutq munosabatini chuqurroq anglashga imkon beradi. Iboralar nutqiy akt strukturasi modal, emotsional va funksional yuklamani o'ziga olib, so'zlovchining ichki pragmatik intentsiyasini (niyatini) tinglovchiga to'laqonli yetkazishda asosiy lisoniy vosita vazifasini o'taydi. Ushbu yo'nalishdagi tadqiqotlar qiyosiy tilshunoslik va pragmatik lingvistik sohalari rivojiga munosib hissa qo'shadi.